



## MEHRIBON USTOZ, ZAHMATKASH OLIM

**Muallif:** Karimova Faridaxon Isakovna<sup>1</sup>

**Affiliyatsiya:** Namangan davlat universiteti prof. v.b., filologiya fanlari doktori<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.20199118>

O‘zbek adabiyoti tarixini tadqiq etgan Aziz Qayumov, Abduqodir Hayitmetov, Suyuma G‘aniyeva, Saidbek Hasanov kabi ustozlarimizni yodga olar ekanmiz, “Buyuklik – oddiylikda” degan naql yodimizga tushaveradi. Chunki buyuk insonlar siymosida oddiylik, kamtarlik, kamsuqumlik, muloyimlik, shu bilan birga, ilm yo‘lidagi mehnat-u mashaqqatlarni zimmasiga olishdek ulkan fidoiylik mujassam ekanligini his qilamiz. Filologiya fanlari doktori, professor Muhammadjon Hakimovda ham ana shu fazilatlar ustuvor edi, desam mubolag‘a bo‘lmaydi.

1993-yili “O‘zbek adabiyotida debocha” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildim. Himoya oldidan birinchi taqrizchi sifatida Muhammadjon Hakimov domla belgilandi. Dissertatsiyani ko‘tarib, ming istihola bilan O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Qo‘lyozmalar institutiga yo‘l oldim. Ustoz bilan avval hamsuhbat bo‘lmaganim uchun qanday kutib olar ekanlar, nima der ekanlar, degan savollar hayolimda aylanar edi. O‘sha paytda Adabiyot instituti Qo‘lyozmalar instituti deb yuritilar edi. Domla bo‘lim mudiri ekanlar. Eshikni taqillatib, xonaga ruxsat so‘rab kirib bordim. O‘rnilaridan turib, xuddi ota o‘z qizini kutib olayotgandek mehr bilan “Keling, keling, qizim” dedilar. Ustozning muomalalaridan ko‘nglim yorishdi. Kelishimning sababini aytib, dissertatsiyani stol ustiga qo‘ydim. Dissertatsiyani qo‘llariga olib ko‘z yugurtirar ekanlar, “Abduqodir Hayitmetov domlaning shogirdimisiz? Yaxshi ustozning etagidan tutgan ekansiz. Domla sizga ajoyib mavzu beribdi. Debochalar – devonning oltin darvozasi. Lekin bu mavzu hali maxsus ishlanmagan edi. Yaxshi ish bo‘libdi”, – dedilar. Hali-hanuz ustozning bu so‘zlari qulog‘im ostida jaranglaydi.

Ustoz ish bilan tanishib, fikrlarini, albatta, yozib taqdim qilishlarini ta‘kidlab xayrlashdilar. Va nihoyat, aytilgan muddatda ustozning eshiklarini taqillatib, yana xonalariga kirib bordim. Domla iliq kutib oldilar. “Debochalar haqida yaxshi tadqiqot bo‘libdi, fikrlarim ijobiy”, deya ikki nusxada taqrizni qo‘limga tutqazdilar. Nima uchun taqrizning ikki nusxada berganliklarini o‘sha paytda o‘ylab ko‘rmabman. Lekin domla taqrizning bitta nusxasi dissertantning o‘zida qolishi kerakligini ham hisobga olgan ekanlar. Uzoqni ko‘ra olish ulug‘larning yaxshi bir fazilati ekanligini bugun his qildim. Domla taqriz bilan birga, o‘zlarining “Navoiy asarlari qo‘l yozmalarining tavsifi” nomli kitoblarini ham taqdim qildilar. Suhbat davomida ustoz “Xazoyin ul-maoniy” debochasining 1495-yilda xattot Darvesh Muhammad Toqiy tomonidan kulliyot tarkibiga birinchi marta ko‘chirilganligi masalasiga e‘tiborimni tortdilar. Yosh bo‘lganligim uchun bo‘lsa kerak, debochaning kim tomonidan qachon ko‘chirilganligiga e‘tibor qilmagan ekanman. Shu o‘rinda “Xazoyin ul-maoniy ” debocha haqidagi muhim bir ma‘lumotni bilib oldim. Buni ustoz taqrizda ham e‘tirof etgan edilar: “Alisher Navoiy 1491-yildan Husayn Boyqaroning taklifi va maslahati bilan “Xazoyin ul-maoniy ”ni tuzishga kirishar ekan, shohning taklifiga binoan devon



musavvadarini peshma-pesh saroydagi Oliy majlisga yuborib turadi. She'rlar Oliy majlisda o'qilib muhokamadan o'tgach, Husayn Boyqaroning shaxsan o'zi yana bir marta ko'zdan kechirib shoirga yuborgan. Bunday muhokama, mubohasa va tahrirlar besh yil davom etgan. Nihoyat, "Xazoyin ul-maoniy" matnlari uzil-kesil tayyor bo'lgach, 1495-yil iste'dodli xattot Darvesh Muhammad Toqiy kulliyot tarkibiga ko'chirishga boshlagan". Domlaning bu kitobi Alisher Navoiyning debochali devonlari qo'lyozmalarini o'rganishda menga dasturilamal bo'ldi.

Aslida ustozni "Adabiy meros" ilmiy to'plamining 1-kitobidagi "Alisher Navoiy lirikasida xalq maqollari" nomli maqolalari orqali bilvosita taniganman. Navoiy debochalarini o'rganish asnosida mazkur to'plamdagi maqolalarni ham katta ishtiyoq bilan o'qib-o'rganib chiqdim. Ustozning maqolalari "Xazoyin ul-maoniy" devonlari asosida bo'lganligi uchun ish faoliyatimda ham bu maqolaga ko'p marta murojaat qildim.

Ma'lumki, xalq og'zaki ijodidagi maqol, matal va hikmatli so'zlar Navoiygacha bo'lgan turkiy she'riyatda, xususan, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Sakkokiy, Atoyi, Lutfiy kabi shoirlar ijodida ham faol qo'llanilgan. Alisher Navoiy bu borada nafaqat o'zigacha bo'lgan ijodkorlar izidan bordi, balki badiiy va ilmiy asarlarida maqol, matal va hikmatli so'zlardan mahorat bilan foydalanishni haddi a'losiga yetkazdi. Shoirning "Xazoyin ul-maoniy" devonlari, "Xamsa" dostonlari, "Mahbub ul-qulub" asarlarida istifoda etilgan maqol va hikmatli so'zlar uning g'oyaviy niyatini ochib beradigan, falsafiy va axloqiy-ta'limiy qarashlarini yorqin ifodalashga xizmat qiladigan original badiiy vositalarga aylandi. Bu jihat shoirning lirikasida yorqin aks etgan. Olimning ta'kidlashicha, "Maqol Navoiy lirikasining ko'pchilik janrlarida: g'azal, muhammas, qit'a, ruboiy va boshqalarda qo'llangan. Lekin maqollarga ko'proq murojaat etish jihatidan g'azallar alohida ajralib turadi". G'azallarda keltirilgan maqol va matallar "Bu masal mashhur erur, bu masaldur, so'zki bor, so'z der, rost andoqkim, chin emishkim, der emish, derlar, deydilar, ayturkim, chin demishturlarki, o'ylakim, o'yladurkim" kabi so'z va iboralar bilan ishora qilinadi. Ba'zan hech qanday iboralar yoki kirish so'zlarisiz, to'g'ridan to'g'ri keltiriladi. "Navoiy g'azallarida maqol va matallar, asosan, baytning ikkinchi misrasida keladi. Ikkinchi misradagi maqol yo matal birinchi misradagi fikrning to'g'riligini tasdiqlash uchun xizmat qiladi. Baytning birinchi misrasida ham maqollar ishlatish hollari uchraydi. Lekin u Navoiy lirikasi uchun ham, umuman, sharq poeziyasi uchun xarakterli emas". Ma'lumki M.Hakimov "Xazoyin ul-maoniy" g'azallari matnidan 400 ga yaqin maqol va matallarni aniqlagan, ularning 23 tasigina baytning birinchi misrasidan o'rin olgan. Shuningdek, "Xazoyin ul-maoniy" da maqollar faqat alohida baytlardagina emas, balki o'nlab g'azallar matladan maqtagacha xalq maqollari asosiga qurilgan. Domla Alisher Navoiyning xalq og'zaki ijodiga munosabati va muhabbatini chuqur mushohada va ilmiy dalillar bilan asoslagan. Aytish mumkinki, olimning "Xazoyin ul-maoniy"dagi g'azallarda qo'llangan maqollar xususida bahs yurituvchi tadqiqoti bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.